



## Legal provision for glorifying human values in Avesta

Odil BURIYEV<sup>1</sup>

Institute of State and Law of the Academy of Sciences of Uzbekistan

### ARTICLE INFO

**Article history:**

Received June 2022  
Received in revised form  
25 June 2022  
Accepted 25 July 2022  
Available online  
20 August 2022

**Keywords:**

Avesta,  
Ancient Egypt,  
China,  
“Aridush” – malice,  
“Ochiripta” “Avauryishta”,  
theory of human rights,  
theory of the state and law,  
history of the state and law,  
philosophy,  
religious studies,  
history of Uzbekistan,  
political science.

### ABSTRACT

The content of this article is that a lot of reforms aid at protecting the interests of our citizens is currently being implemented. Therefore, we can see in “Avesta” how the interests of people prevail. Since the book “Avesta” is the first written source of social, political, economic and spiritual history, it is necessary to analyze it carefully, because it is essential to study and analyze legal sources and systems of the past. Spiritual heritage left by ancestors is important in adoption of laws and legal documents related to human rights and freedoms in the society.

2181-1415/© 2022 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol3-iss4-pp256-261>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

## Avestoda inson qadri ulug‘lanishining huquqiy ta‘minlanishi

### ANNOTATSIYA

**Калит сўзлар:**

“Avesto”,  
Qadimgi Misr,  
Xitoy, “Aridush” – g‘araz,  
“Ochiripta” “Avauryishta”  
“Inson huquqlari nazariyasi”,  
“Davlat va huquq nazariyasi”,  
“Davlat va huquq tarixi”,  
“Falsafa”,  
“Dinshunoslik”,  
“O‘zbekiston tarixi”,  
“Siyosatshunoslik”.

Hozirgi kunda fuqarolarimizning manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan ko‘plab islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Shunday ekan, “Avesto”da inson manfaatining qanchalik ustun ekanligini ko‘rishimiz mumkin. “Avesto” kitobi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma‘naviy tarixning ilk yozma manbai bo‘lganligi uchun uni puxta tarzda tahlil etish zarur, chunki o‘tmishdagi huquqiy manbalar va tizimlarni, ajdodlar qoldirgan ma‘naviy merosni o‘rganish va tahlil qilish zaruriyati, jamiyatda inson huquq va erkinliklariga oid qonun va qonunosti hujjatlarini qabul qilishda muhim ahamiyatga ega.

<sup>1</sup>Independent researcher of Institute of State and Law of the Academy of Sciences of Uzbekistan. Termez, Uzbekistan. E-mail: odilburiyev@gmail.com.

# Правовое обеспечение человеческого достоинства в Авесте

## АННОТАЦИЯ

### Ключевые слова:

«Авеста»,  
Древний Египет, Китай,  
«Аридуш» – злоба,  
«Очирипта»,  
«Аваураишта»,  
«Теория прав человека»,  
«Теория государства и права»,  
«История государства и права»,  
«Философия»,  
«Религиоведение»,  
«История Узбекистана»,  
«Политология».

Содержание данной статьи заключается в том, что в настоящее время реализуется множество реформ, направленных на защиту интересов наших граждан. Поэтому мы можем видеть в «Авесте», как преобладает человеческий интерес. Поскольку книга «Авеста» является первым письменным источником по социальной, политической, экономической и духовной истории, необходимо провести её тщательный анализ, в силу необходимости изучения и анализа правовых источников и систем прошлого. Духовное наследие, оставленное предками, имеет важное значение в принятии законов и правовых документов, касающихся прав и свобод человека в обществе.

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasi o'z oldiga demokratik, huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyati barpo etish, huquqiy tizimni modernizatsiyalashni oliy maqsad qilib qo'ydi. Jamiyatning ishonch bilan ulkan maqsad sari harakatlanishi, uning davlatchilik va huquqi ko'p ming yillik tarixga ega ekanligidan dalolat beradi. O'zbek davlatchiligi va huquqi o'z taraqqiyotida beqiyos, takrorlanmas bosqichlarni bosib otdi. Shunday davrdan darak beruvchi jahon ilmiy tafakkur xazinasidan munosib o'rin egallagan noyob manbaalardan biri "Avesto"dir. Bugunga kelib, o'zbek xalqining o'z ajdodlarining tafakkuri va ma'naviyatining buyuk merosi – "Avesto" kitobiga qiziqishi ortib bormoqda, chunki, hozirgi davrda inson qadrini ulug'lash, inson huquqlariga nisbatan hurmat va e'tirof, hurmat bilan qarash, mustaqillikni mustahkamlash, milliy davlatchilikni takomillashtirishga bo'lgan bir qancha tadbirlarni amalga oshirmoqda. Bu ishlarni amalga oshirish maqsadida "Avesto"da keltirilgan siyosiy-huquqiy qadriyatlardan unumli foydalanish mumkin. Zamonaviy davlat asoslariga mos keluvchi davlat va huquq tuzilmalarini yaratish va takomillashtirishda "Avesto"da keltirilgan qadriyatlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

"Avesto"da yoshlar va o'sib kelayotgan yosh avlod vakillari huquqlariga oid g'oyalarga, ularning tarbiyasiga katta e'tibor berilganligi hisobga olinsa, maskur asarning hozirda ham qanday sarmazmun ahamiyat kasb etayotganligini e'tirof etish mumkun bo'ladi. Bu muqaddas kitobda keltirilgan qadriyatlar milliy istiqlol g'oyasi asoslarini shakllantirishga katta ta'sir ko'rsatadi.

"Avesto" da inson huquqlari to'g'risidagi g'oyalarning vujudga kelishi bilan bog'liq masalalar alohida ilmiy tadqiqot mavzusi bo'lmagan. Shu sababli O'zbekiston Respublikasida qonun ustivorligini ta'minlash va sud – huquq tizimini yanada isloh qilishning ustivor yo'nalishlarini ro'yobga chiqarish inson huquqlarini hamda inson qadrini davlat va jamiyatda yanada nufuzli o'ringa qo'yilishini taqozo etmoqda.

## TAHLIL VA NATIJALAR.

O'zbek xalqining davlat va huquqi Qadimgi Misr va Xitoy bilan bahslasha oladigan ko'p ming yillik tarixga ega. Mustaqillik o'zbek xalqiga o'z tarixi, madaniy va ilmiy merosini o'rganish, haqqoniy tarixni idrok etish va tarixiy xotirani shakllantirish

imkoniyati yaratildi. Davlatning tarixiy ildizlarini, u qanday sharoitlarda paydo bo'lganligini, qanday rivojlanganligini va zamonaviy voqelikda qanday mazmun kasb etganligini bilmasdan turib, sivilizatsiya hodisasi sifatida davlatni ilmiy tushunish mumkin emas.

Qayd etish lozimki, O'zbekiston hududidagi sivilizatsiya jarayonlari va muayyan nazariyalar doirasida davlatchilik paydo bo'lishi, inson huquqlari g'oyasi tarixini o'rganish endigina boshlandi. Kishilik jamiyati taraqqiyotini o'rganishda inson huquqlari sohasidagi g'oyalar rivojini tatbiq etish masalalarida yagona yondashuv mavjud emas. Sivilizatsiya hodisasi sifatida qadimgi O'zbekistonda davlatchilik va inson huquqlari taraqqiyoti tajribasini tahlil etish hududimizda qadimgi davlatchilik va huquqning hali noma'lum bo'lgan jihatlariga e'tiborni qaratish imkonini beradi. Shuni alohida ta'kidlash zarurki, qadimgi O'zbekiston sivilizatsiyasi nafaqat o'zbek xalqining ajdodlari, balki O'rta Osiyodagi boshqa xalqlarning ajdodlari tomonidan yaratilgan: Hindiston, Eron, Xitoy, Yunoniston va Buyuk Dashtning qadimgi xalqlari ham unga o'z hissalarini qo'shgan. Karvon yo'llari yoqasida joylashgan O'zbekistonning qadimgi davlatchiligi tashqaridan bo'ladigan ta'sirga uchrashi, shuningdek, o'zi ham o'z qo'shni hududlarga ta'sir etmasligi mumkin emas edi.

Davlatchilikni va inson huquqlari g'oyasining kelib chiqishi to'g'risidagi masala tarix va yuridik fandagi munozarali masalalardan biridir. Davlat va huquqning paydo bo'lishini turlicha tushuntiruvchi ko'plab nazariyalar mavjuddir. "Avesto" o'z davrida ham, hozir ham inson huquqlari, inson qadrini ulug'lashga xizmat qiladi. Davlat va huquq hodisalarining vujudga kelishi va taraqqiyotining turli tarzda talqin etilishi, quyidagilar bilan belgilanadi:

**birinchidan**, – davlat va huquqning vujudga kelish jarayonining o'zi murakkab va serqirra ekanligi;

**ikkinchidan**, – tadqiqotchilarning tafakkuri, e'tiqodi, manfaatlari va boshqa sub'yektiv omillar bilan bog'liqligi;

**uchinchidan**, – u yoki bu nuqtai nazarga tayangan holda davlat va huquqning dastlabki vujudga kelishi to'g'risidagi masalalarning buzib talqin etilishi urug' jamoasining tabiiy rivojlanishi natijasida ko'pgina yangi oila – urug' jamoalari vujudga kelgan. Bu esa ancha yirik ijtimoiy ittifoqlar va qabilalarning, ba'zan esa qabilalar ittifoqining paydo bo'lishiga olib kelgan. Qabila, odatda, o'z hududiga, nomiga, tiliga, diniy va urf-odatlariga ega bo'lgan. Tahlillar "Avesto"da tasvirlangan va O'zbekiston hududida shakllangan ilk davlatchilik va inson huquqlari asoslarining vujudga kelish jarayonini uch davrga bo'lish imkonini beradi:

- birinchi davr, eng qadimgi davr bo'lib, bunda adolat va inson qadri ulug'langan hamda insoniy baxt-saodat hukmron bo'lgan. Demak, inson huquqlari bu davrda hech qanday cheklovlarga ega bo'lmagan;

- ikkinchi davr – yaxshilik ruhlari bilan yomonlik ruhlari o'rtasidagi adolar uchun kurash davri. Bu davrda inson huquqlari g'oyasiga putur yetgan, keskin ravishda insonning holati, qadr-qimmatini va uning huquqlarini himoyalash qiyinlashgan ;

- uchunchi davr – aql – idrok va adolat tantana qilib, dehqonlar badavlat, davlatning siyosiy va qonunchilik tizimi mustahkam bo'lishi uchun "yaxshilik ta'limining va sadoqatning amalga oshishi uchun yaxshi hokimlar hukm yuritganlar". Demak, bu davrga kelib, inson qadri hamda inson huquqlari jamiyatda tiklanib, o'zining asl holatiga, ya'ni ta'minlanganlik maqomiga ega bo'lgan.

Inson huquqlariga hamda uning qadr-qimmatiga nisbatan hurmat va e'tirof bilan qarash, mustaqillikni mustahkamlash, milliy davlatchilikni takomillashtirish kabi sermazmun ishlarda "Avesto"da keltirilgan siyosiy- huquqiy qadriyatlardan unumli foydalanilmoqda.

O'rta Osiyo xalqlarining tarixi ushbu hududda shakllangan va davlatchilik hamda huquqiy tizmining rivojlanishiga katta hissa qo'lgan muqaddas kitob "Avesto" bilan chambarchas bog'liqdir. Maskur asar dunyoga mash'hur bo'lib, davlat tuzilmalarining vujudga kelishi, ularning rivojlanishi kabi xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Dunyo sivilizatsiyasi tarixida mazkur asarning tutgan o'rni beqiyosdir. Avesto"da inson qadri ulug'lanib, insonni huquq va erkinliklari, oilaviy-huquqiy munosabatlar mustahkamlangan bo'lib, asosiy e'tibor nikoh tuzish zaruriyati, bola huquqlarining himoyasi, nikohni bekor qilish shart-sharoitlari, er-xotinning huquq va majburiyatlari, ular o'rtasidagi mulkiy munosabatlarga qaratilgan. "Avesto"da keltirilgan bitiklarda xalqning qadim o'tmishida inson huquqi va qadri, oila, oila – nikoh munosabatlari yuksak qadriyat sifatida ulug'langan. Zardushtiylikning bu muqaddas kitobi hozirgi kunda ham inson huquqi va oila institutini rivojlantirish va takomillashtirishda qimmatli manba bo'lib xizmat qilishi mumkin. "Avesto"da mustahkamlangan va ilgai surilgan inson huquqi va qadri, oilalarga hamda ayollarga samimiy hurmat, bolalarni dildan sevishtirish, yetimlarga muruvvat, mehr-shavqatlilik, oila mustahkamligi uchun qayg'urish, farzandlar kamoli va sog'lom hamda barkamol avlod uchun kurashish va boshqa shu kabi chuqur ma'noga ega bo'lgan g'oyalar O'zbekiston milliy – huquqiy tizimiga singdirilgan.

Hozirgi vaqtda ilmiy tadqiqotlarni olib borayotgan izlanuvchilar "Avesto"ni inson qadriga, insonning tabiatiga va jamiyatga hukmdorlarga, bir-biriga bo'lgan munosabati, xatti-harakati, huquqiy harakatlarini tartibga soluvchi huquqiy manba ekanligi, undan tabiat kuchlariga qarshi jinoyatlar, dinga qarshi jinoyatlar, oilaga qarshi jinoyatlar, mulkiy jinoyatlar mavjud bo'lganligi, ularga qarshi jismoniy jazo, qamoq, gunohni yuvish, qondoshlik o'chi hamda o'lim jazosi berilishi, jinoyat prosesining ob'yekti va sub'yekti masalalarini keng ko'lamda ochib berishlari talab etiladi.

Bunda ular quyidagilarga e'tibor qaratib, tadqiqotlarni olib borishlari maqsadga muvofiqdir:

- "Avesto" mavjud bo'lgan davrdagi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy tuzum va huquqiy tizimni atroflicha o'rganish;
- Turonda ilk vujudga kelgan davlatlar qonunchiligida mujassamlangan davlat va huquq masalalari, hokimiyatni egallash, uni mustahkamlash borasidagi g'oyalarni o'rganish;
- O'zbekiston davlatchilik tajribasi asosida mavjud bo'lgan siyosiy-huquqiy masalalarni atroflicha o'rganish, unga ob'yektiv baho berish;
- Mustaqil davlatchilikni shakllantirishga qaratilgan tarixiy-huquqiy ta'limotlarni chuqur ilmiy-tizimli tahlil etish;
- "Avesto"ning qadimgi tarix bo'yicha noyob yuridik manba ekanligini e'tirof etgan holda inson huquqlari to'g'risidagi ilk g'oyalarni tahlil etish orqali zamonaviy inson huquqlari bilan bog'liq muammolarni hal qilish bo'yicha yechim va tadbirlarni ishlab chiqish;
- "Avesto"dagi "Aridush"- g'araz bilan qilingan jinoyat, "Ochiripta" – qasddan qilingan jinoyat, "Avauryayishta" – jahl ustida qo'lga qurol olib urmoqchi bo'lgan shaxs jinoyatlarining mohiyatini ochib berish;

- “Avesto”da fuqarolik, jinoyat huquqi sohalari va ayollar, bolalar huquqlarini tahlil etishning dolzarbligini huquqiy tomondan asoslab berish;
- ilmiy-nazariy tahlil asosida O‘zbekiston xalqlarining qadimda ham inson huquqlariga, inson qadrini ulug‘lash hamda huquqqa oid g‘oyalarni chuqur o‘rganish asosida zamonaviy davlatchilik va huquqiy tizimni rivojlantirish hamda takomillashtirishga yo‘naltirilgan taklif va mulohazalarni berish;
- “Avesto” g‘oyalarning davlatchilik shakllari – “nmanya”, “vis”, “zantu”, “dax‘yu” tushunchalarining tub mohiyatini ochib berish va shu bilan ularni inson qadriga, inson manfaatlariga, inson huquqlariga oid g‘oyalarga bo‘lgan ta‘sirini o‘rganish.

Shuni ta‘kidlash lozimki, “Avesto”da va boshqa ilmiy manbalarda qadimgi O‘zbekiston hududida nainki davlatchilikka oid turli xil tushuncha va atamalar, balki inson huquqlariga oid inson qadrini ulug‘lashga oid g‘oyalarning zardo‘shiylik dini bilan chambarchas bog‘liq ekanligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

O‘zbekiston davlatchiligi va inson huquqlarilarini o‘rganish metodologiyasini shakllantirish eng dolzarb muammolardan, hozirgi ijtimoiy-yuridik fanlar doirasida eng kam tadqiq qilingan soha hisoblanadi. “Avesto” kitobi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma‘naviy tarixning ilk yozma manbasi bo‘lganligi uchun uni puxta tarzda tahlil etish zarur.

Unda keltirilgan xulosalardan “Inson huquqlari nazariyasi”, “Davlat va huquq nazariyasi”, “Davlat va huquq tarixi”, “Falsafa”, “Dinshunoslik”, “O‘zbekiston tarixi”, “Siyosatshunoslik” fanlarini o‘qitishda, ushbu fanlarning zardo‘shiylik dini va “Avesto”ga oid qismlarini yozishda, risolalar va tezislar chop etishda, barcha o‘quv yurtlari, ayniqsa, yuridik yo‘nalishdagi o‘quv yurtlarida, malaka oshirish kurslarida, seminarlar tashkil qilishda foydalanish mumkin. Mazkur nodir manbani o‘rganish, uning g‘oyalari ilmiy tahlil etish, shu bilan bir qatorda inson huquqlari, inson qadrini ulug‘lash bugungi kunning dolzarb vazigalaridan biridir.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Xulosa qilib aytganda, “Avesto” bundan 3000 yil oldin yashab o‘tgan xalqlarning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy va madaniy-ma‘naviy hayoti uchun beqiyos ahamiyat kasb etgan. “Avesto”da mujassamlangan qoidalar, nafaqat O‘zbekiston xalqlari, shu bilan birga Yevropa, aynan yunon-rim xalqlarining madaniyati va turmush tarziga hamda inson qadr-qimmatiga, inson huquqlari g‘oyasiga katta ta‘sir ko‘rsatgan.

Inson huquqlarining 3 ta davrga bo‘linishi “Avesto”da farazli maqomga ega bo‘lib, uning eng asosiy mazmuni inson qadr-qimmati va uning baxtini ifodalashdir. “Avesto” barcha odamlar u dunyoda emas, balki shu foniy dunyoda baxtli bo‘lishini ta‘kidlaydi. Insoniyat sivilizatsiyasi tarixida “Avesto”ning tarixiy ahamiyati shundan iboratki, uning asosida insonning qadr- qimmati, uning adolatli va huquqiy turmush tarsi yotadi. Inson to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish uning qadr-qimmatni yuksaklarga ko‘tarish, insonning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy g‘oyalari “Avesto”ning asosiy mohiyatini kasb etadi. Uning diniy – huquqiy qoidalari orqali inson, davlat, jamiyat hayotining barcha jabhalarining mukammal ravishda huquqiy tartibga solingan. Unda zamonaviy huquq tizimining barcha huquq sohalari va institutlariga xos bo‘lgan normalar uchraydi.

Hozirgi Yangi O‘zbekistonda o‘zgartirilaytgan O‘zbekiston Konstitutsiyasida muhim o‘rin tutgan inson qadr- qimmati “Avesto”da ham insonning qadr- qimmati, uning hayoti va sog‘lig‘i shaxsning bebaho boyligi hisoblanadi va uning bu boyliklardan mahrum etilishi, yoki, ularga shikast yetkazish shaxs uchun fojia hisoblanadi. Unda inson sog‘lig‘i va hayotiga hamda inson qadr –qimmatiga qarshi bo‘lgan jinoyatlar batafsil toifalashtiriladi hamda shunga mos jazo choralari belgilangan.

O‘zbekiston Konstitutsiyasida “Inson va uning qadr-qimmatini” degan ulug‘ tushuncha markaziy o‘ringa qo‘yilgan. 2022-yil esa “Inson qadrini ulug‘lash yili”, deb bejiz qo‘yilmagan. Bundan kelib chiqib shuni ta’kidlash lozimki, “Avesto” o‘z davri uchun, hozir ham xalqimiz ongida inson huquqlari va erkinliklarini, hamda uning qadr-qimmatini ulug‘lash va ta’minlashga xizmat qiladigan, uning g‘oyalari insonparvarlik, adolatparvarlik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilganligini inobatga olib, uning vujudga kelishi, taraqqiyotini, g‘oyalari keng ilmiy tadqiqot ob‘yektiga aylantirish lozim.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Karimov I.A. “O‘zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari”. T., O‘zbekiston. 1995-yil.
2. Turg‘unov Murodjon. “Avesto” Zardo‘shiylikda ayollar va bolalar huquqlarining ifodalanishi”. O‘zbekiston I.I.V. Akademiyasi. T., 2016-yil.
3. Homidov Homidjon. “Avesto”ning fayzlari”. T., 2001-yil.
4. Turg‘unov Murodjon. “Avesto”da inson huquqlari to‘g‘risidagi g‘oyalar”. O‘zbekiston I.I.V. Akademiyasi. T. 2014-yil.
5. Turg‘unov Murodjon. “Avesto” va inson huquqlari: tarixiy-huquqiy yodgorligi.
6. “Avesto” O‘rta Osiyo tarixini o‘rganish bo‘yicha eng qadimgi yozma manba”. Jizzax DPI – 28.01.2020-yil.
7. Qosimov Sarvar. “Avesto” ilmiy-madaniy manba sifatida”. 18.07.2018-yil.
8. Rahmonov Nuriddin. “Avestoning paydo bo‘lishi”. O‘zbekiston ovozi – 26.08.2001-yil.
9. Ravshanova Dilrabo- “Avesto”-zardo‘shiylikning muqqadas kitobi sifatida”. Namangan DPI.
10. “Avesto” // O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. T-1/. Toshkent – 2000-y.